

CH₃

LOREM IPSUM

LOREM IPSUM

ISSN: 2181-3310

MUTAFAKKIR

Scientific Journal / Научный журнал / Илмий журнал

№ 34, May (2025)

34-son

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Bosh Muharrir:
SHOHINUR
MIRZAYEV

Tahrir hay'ati

Dilmurod Muhammadiyev
Baxtinur Xudanov
Baxrom Urunov
Nasrullayevich
Shuhrat Ziyadullayev
Muxtor Xudoyqulov
Ulug'bek Vohidov
Murod Abulkasimov
To'rayev Laziz Abdivali
O'g'li

ALISHER NAVOIY
NOMIDAGI O'ZBEKISTON
MILLIY KUTUBXONASI

Kitob va turkum
nashrlarga ISBN va ISSN
raqamlarni birlashtirish
to'g'risida

MA'LUMOTNOMA

Turkum nashrlarning
chiqish ma'lumotlarini GOST
7.4-95 «Nashrlar. Chiqish
ma'lumotlari» hamda GOST
7.56-2002 «Xalqaro standart
turkum raqami» davlatlararo
standartlar talablari asosida
bo'lishini to'liq ta'minlash
maqsadida, Alisher Navoiy
nomidagi O'zbekiston Milliy
kutubxonasi va «Mutafakkir»
1ta 2022 yil 11-apreldagi
№ ISSN-C-35583 sonli
hisob-kitob shartnoma va
2022 yil 19-aprel yildagi №
ISSN-I-35583 schet-fakturaga
asosan turkum nashrlarini
ISSN bilan belgilash uchun
quyidagi raqamni taqdim
etadi:

Turkum nashrning nomi:
Мутафаккир

ISSN raqam: 2181-3310

Turkum nashrlarning turi:
электрон нашр

Ushbu jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining ilovasida mavjud bo'lgan xalqaro indeksatsiya **index copernicus** bazasiga kiritilgan. OAK ilmiy nashrlarda chop etilgan maqola sifatida qabul qilinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati

¹ Maqola chop etilgan pайtda халқаро миқёсда фаолият кўрсатадиган қўйидаги йирик нашриётлар ёки маълумотлар базаси асосида «импакт-фактор»га эга бўлган илмий журналларда нашр этилган мақолалар мазкур Рўйхат таркибига киритилган илмий журналларда chop etilgan илмий мақолалар сифатида қабул қилинади: (1) Web of Science (Web of Knowledge), (2) Journal Impact Factor, (3) Scopus, (4) Journal Citation Reports, (5) Global Impact Factor, (6) International Impact Factor Services, (7) Agris, (8) Chemical Abstracts CAS, (9) GeoRef, (10) PubMed, (11) Springer, (12) Index Copernicus, (13) Bielefeld Academic Search Engine, (14) ResearchBib, (15) Directory of Research Journals Indexing, (16) Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor, (17) Open Academic Journals Index, (18) Ulrich's Periodicals Directory, (19) Scientific Indexing Services, (20) General Impact Factor, (21) InfoBase Index, (22) International Society for Research Activity, (23) Scientific Journal Impact Factor, (24) Scientific Research Publishing Inc, (25) Directory of Open Access Journals, (26) Academic Journals Database, (27) Academic One File, (28) Advanced Science Index, (29) Anthropological Index Online, (30) Anthropological Literature, (31) Anthropology Plus, (32) Asian Education Index, (33) Bibliography of Asian Studies, (34) Compendex, (35) CrossRef, (36) HINARI, (37) Hindawi, (38) Libraries Resource Directory, (39) Impact Factor Search, (40) ResearchGate, (41) SCImago, (42) Scisearch, (43) z/x) Universal Impact Factor.

Шунингдек, жаҳоннинг икки юзта энг яхши олий таълим муассасаси рўйхатидаги олий таълим муассасалари томонидан chop etilgan илмий ишлар ва мақолалар тўғрисида нашр этилган илмий мақола (материал)лар мазкур рўйхатга киритилган илмий нashrlарда chop etilgan мақолалар сифатида қабул қилинади.

SE-OLD QO'SHIMCHASINING MALAY TILSHUNOS OLIMLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI

Mamatkulova Mahliyo Baxtiyor qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Malay tilida qo'shimchalar katta ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada malay tilshunos olimlarining se- old qo'shimchasi yuzasidan olib borgan ilmiy ishlari natijalari va fikrlari keltirilgan. Se- qo'shimchasining gapdagi o'rni, ma'no va vazifasi misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: malay tili, qo'shimcha, o'zak, lingvistik tahlil.

Аннотация: Суффиксы имеют большое значение в малайском языке. В статье представлены результаты и мнения научных работ малайских лингвистов о префиксе se-. Место, значение и функция суффикса se- в предложении проиллюстрированы на примерах.

Ключевые слова: малайский язык, суффикс, корень, лингвистический анализ.

Abstract: Suffixes are of great importance in the Malay language. This article presents the results and opinions of the scientific work of Malay linguists on the prefix se-. The role, meaning and function of the suffix se- in a sentence are illustrated through examples.

Keywords: Malay language, suffix, root, linguistic analysis.

Malay tilidagi se- yoki sa- old qo'shimchasi qadimgi malay tilida davridan beri mavjuddir. Ammo ushbu qo'shimcha malay tili grammatikasida keng o'rganilmagan. Se- old qo'shimchasini morfologik jihatdan Nida o'zining "Prinsip Identifikasi Morfem" (1949) asarida o'rganib chiqqan. Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan davrda ushbu ma'lumotlarni yig'ishda DBP (Dewan Bahasa dan Pustaka) nashriyotining hissasi kattadir.

Koinotdagi hayotning asosini atom zarrachalari tashkil qilgani kabi, tilda so'zlarning yasashini uning eng kichik birliklari ya'ni morfemalarning birikishi hosil qiladi. Morfema grammatik birlik qatlamida o'ziga xos ma'no va grammatik vazifaga ega bo'lgan eng kichik birlikdir.

Malay tili avstraneziya tillar oilasiga mansub bo'lib, tabiatidan agglutinatif til hisoblanadi.¹ Shuningdek, malay tilida so'z yasashi 4 usulda amalga oshiriladi:

- 1) Qo'shimchalar orqali
- 2) O'zak so'zlar orqali

¹ Saidatul Nornis Hj. Mahali. 2022. Imbuhan Akhiran Bahasa Bajau Kota Belud, Sabah. Jurnal Melayu Isu Khas Disember, 31-47.

- 3) Qo'shma so'zlar
- 4) Takror so'zlar

Imran Ho Abdullah va Hazimah Yusof so'z yasallishining ikki turini o'rganib chiqishgan. Ushbu yasalgan yangi so'zlar yangi ma'noga ega bo'lgan so'zlardir. Kamus Linguistik (Lingvistik lug'at) da keltirilishicha malay tilida affiksatsiya hodisasi asos so'zga old, orqa, hamda ham asos oldiga va ortiga qo'shiladigan qo'shimchalar orqali hosil bo'ladi. Shunday qilib, malay tilida qo'shimchalar orqali yo'z yasallishi 2 turga bo'linadi:

- a) So'z asosiga qo'shimchalar qo'shish orqali;
- b) Tarkibida qo'shimchasi oldindan mavjud bo'lgan asosga qo'shimcha qo'shish orqali

Malay tilida se- old qo'shimchasi o'ziga xos muhim o'rinni egallaydi. Ushbu qo'shimcha tildagi eng qadimiy qo'shimchalardir biridir. Malay yozuvi arabdan lotin yozuviga o'zgartirishi davrida se- sa- qo'shimchasi bilan bir qatorda *bar-*, *ba-*, *ka-mar-*, *par-* kabi qo'shimchalar yo'qolib ketgan.

Shaharir Mohammad Zainning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra, sa- qo'shimchasi ilk bor Kunlun tilidagi Campa bitiktoshida uchragan bo'lib, milodiy IV asrga tegishlidir.³ Sa- qo'shimchasini yetuk malayshunos olimlardan *Za'ba*, *Ahmad Yaqub al Johori*, *Arbak Othman*, *Asmah Haji Omar*, *Ch.A. Van Ophuijsen* va *Nik Safiah Kareem*lar chuqur tahlil qilishgan.

Za'ba ko'proq se- qo'shimchasining turli xilligiga to'xtalib o'tgan. Asosan ushbu old qo'shimchaning 5 turi mavjudligi haqidagi fikrni oldinga suradi.

*Ahmad Yaqub al Johor*ning "*Lidah Melayu*" kitobida keltirilishicha se- qo'shimchasining ma'no turlari talayginadir, ammo hozirgi kunga kelib uni ilmiy jihatdan tahlil qilish oldingiga nisbatan ancha kamaygan.⁴ Biroq olim se-old qo'shimchasini so'zlarning tarkibiy qismiga aylangan harfi degan fikrga qarshi chiqadi. Masalan *sele-sai*, *segera*, *semua* kabi so'zlarda se – ushbu so'zlarning harfi emas degan fikrni oldinga suradi. Ushbu fikr esa Nida ta'limotiga qarama-qarshi hisoblanadi.

C.A. Mees o'zining "Tatabahasa dan Tatakalamat" asarida se- qo'shimchasiga etimologiyasiga to'xtalib o'tgan. U se- qo'shimchasining 6 ma'nosi borligini, shulardan 4 tasi Sanskrit tiliga oidligini keltiradi.

Arbak Othman se- qo'shimchasini tadqiq qilarkan, yuqoridagi olimlar kabi uning ma'no xilma-xilligiga emas, balki ma'no torayishi hodisasiga ahamiyat qaratgan. Se- qo'shimchasi asosan ravish bilan qo'llaniladi degan fikrni oldinga surgan.

Ch.A. Van Ophuijsen esa farqli ravishda se-qo'shimchasini faqat sonlar bilan

2 Ahmad Ya'qub al-Johori. 2021. *Lidah Melayu*. Ulang Cetak. Kuala Lumpur: Akademi Jawi Malaysia.

3 Intan. 1991. Malaysia Kita. Kuala Lumpur: INTAN.

Marrison, G. E. 1975. The Early Cham Language and Its Relationship to Malay. *Journal of the Malaysian Branch of the Royal Asiatic Society*. 48(2), 52-59.

4 Ahmad Ya'qub al-Johori. 2021. *Lidah Melayu*. Ulang Cetak. Kuala Lumpur: Akademi Jawi Malaysia.

qo'llanilishini chuqur tadqiq qilgan.

Asmah Haji Omar ushbu qo'shimchaning ifodalanishini asosan 3 turga bo'ladi, ya'ni son bilan ifodalanishi, so'z turkumini o'zgartirishi, ravishni yasalishi.

Se-qo'shimchasining malay tilshunos olimlari tomonidan grammatik taqqoslanishi

Za'ba	Se- qo'shimchasi malay tilida "esa" so'zidan olingan bo'lib, u harf emas, balki "bir" degan ma'noni ifodalovchi morfemadir. Za'ba se- qo'shimchasining asosga qo'shilganda mavjud bo'ladigan 5 turini o'rganib chiqqan: 1. "Bir" degan ma'noni bildiradi: Seorang (bir kishi), sebuah (bir narsa), sebilang (bitta) 2. "Bir xil, o'xshash" degan ma'noni bildiradi: Serupa (bir xil ko'rinishli), sebangsa (bir xil millat) 3. "bo'yi" degan ma'noni bildirib, joy va vaqtga nisbatan ishlatiladi: Sepanjang jalan-yo'l bo'ylab, seumur-umr bo'yi 4. Darajaning bittaligini, yagonaligini bildiradi: Setiap-tiap-har bir, senya-har, ham 5. Noaniqlikni bildiradi: Seseorang, sesiapa-kimdir, sesuatu-nimadir
Ahmad Yaqub al Johori	• Se- satu so'zining qisqartmasi bo'lib, son so'z turkumiga mansubdir: <i>setahun</i>(bir yil), <i>sebulan</i>(bir oy). • <i>Sebermula</i>, <i>sekiranya</i>, <i>sebenarnya</i>, <i>sebetulnya</i> kabi so'zlarda harf hisoblanadi. Uning fikricha, agar yuqoridagi so'zlardan se- olib tashlansa, so'zlar ma'nosini yo'qotadi. • Bir xil, o'xshash degan ma'nolarni bildiradi: <i>sebesar</i>, <i>sedesar</i>, <i>sekecil</i> kabi. • Aniq vaqtni bildiradi: <i>selama</i>, <i>semenjak</i> • <i>Segera</i>, <i>selesai</i>, <i>selagi</i> so'zlarida tarkibiy qismga aylanib bo'lgan.
Asmah Haji Omar	• Sonlardan oldin; • <i>Suku</i>, <i>tiap</i> so'zlaridan oldin: <i>setiap</i>, <i>sesuku</i> • Sonning elementi yoki ma'lum miqdordagi so'z: <i>setengah</i>, <i>separuh</i>, <i>sekalian</i> • Per-qo'shimchasi+son ko'rinishida kelishi: <i>seperlima</i>(beshdan biri); • O'lchovni bildiruvchi so'zlardan oldin: <i>sehari</i>, <i>semester</i>, <i>seminit</i>, <i>setitik</i>, <i>segelintir</i> • Hisob so'z vazifasida kelishi: <i>seorang</i>, <i>sebuah</i> kabi.

Nik Safiah Kareem	Se- old qo'shimchasi sifat, ravish so'z turkumidagi so'zlardan oldin qo'shiladi, bir xillikni ifodalaydi, hisob so'z vazifasini bajara-di.
-------------------	--

Xulosa qilib aytgancha, Nik Safiah Kareemning tadqiqot ishi undan oldingi boshqa olimlar fikrlarini jamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ahmad Hariyt Syah Yusuf.Fungsi Makna Imbuhan.Universiti Kebangsaan Malaysia.Bangi.2008.
2. Ahmad Yaqub al Johori.Lidah Melayu.Ulang Cetek.Kuala Lumpur:Akademi Jawi Malaysia.2021
3. Ch.A.Van Ophuijsen.Tata Bahasa Melayu.Jakarta: Djambatan.1983
4. Imran Ho Abdullah,Hazimah Yusof.Produktiviti Imbuhan mem-,memper-dan memper-kan .Journal Bahasa,15.41-62.2015